


FARG'ONA VILOYATIDA TA'LIM STATISTIKASI

1. MAKTABGACHA TA'LIM


Maktabgacha ta'lim belgilangan davlat me'yorlariga va maktabgacha ta'lim muassasasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalash, o'g'itish, ularga qarab turish va ularni parvarishqilqishni hamda sog'lomlashtirishni ta'minlaydi. Fargona viloyatida maktabgacha ta'lim muassasalar soni 2018 yil 1 yanvar holatiga 665 tani tashkil etib, ularda o'rinlar soni 92759 tadir. Qishlog joylarda esa MTM lar 282 ta bo'lib, o'rinlar soni 33044 ni tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar soni 85092 ta bo'lib, ulardan 40122 tasi qizlar. Viloyatdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagog xodimlar soni 8667 ta, ulardan 8713 tasini ayollar tashkil qiladi.

1-rasm

2017 yil xolatiga xududlar kesimida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati




Maktabgacha ta'lim muassasalari sonining qishloq va shahar joylar bo'yicha taqsimlanishi, hududlar kesimida (birlik) (2017 yil)




Maktabgacha ta'lim muassasalarida 100 ta o'ringa hisoblangan bolalarning o'rtacha soni bo'yicha eng ko'p Farg'ona, Marg'ilon Qo'qon shaharlari va Yozyovon, Oltiariq, Farg'ona, Toshloq, So'x hamda O'zbekiston tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

2017 yil holatiga xududlar kesimida maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar soni



Hodavlat mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari



Viloyat bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan jami pedagog xodimlar soni 8967 nafarni tashkil etib, ulardan 1533 tasi oily ma'lumotli, 7343 tasi o'rta maxsus pedagogik ma'lumotlilardan iborat


1-jadval

**2017 yilda maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari
asosiy ko'rsatkichlari, birlik**


Maktabgacha ta'lim muassasalari soni	O'rinlar soni	Bolalar soni	Ulardan qizlar
8967	8713	1533	7382
Shu jumladan qishloq joylarda			
3126	2994	484	2620

2. UMUMIY O'RTA TA'LIM


2017/2018 o'quv yilida mavjud 920 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami 563312 ta o'quvchilar tahsil olgan bo'lsa, ulardan 258636 nafari qishloq joylarda joylashgan 503 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari hissasiga to'g'ri keladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 69,1 foizi ikki smenada mashg'ulot olib boradi. Ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, Beshariq tumani(96,0%), Oltiariq tumani (84,8%) So'x tumani (75,9%), Toshloq tumanida (68,7%), O'zbekiston tumani (77,3%) hamda Marg'ilon shahari (75,8%) Farg'ona shahrida (71,7%) yuqori foizni tashkil etmoqda. Viloyat bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarning 158034 nafari ikkinchi smenada ta'lim olmoqda.




Umumiy o`rta ta`lim maktablarini mashg`ulotlar smenaliligi bo`yicha taqsimlanishi foizda (2014-2018 yillarida)



Umumta`lim muassasalari va ulardagi o`quvchilarni o`qitiladigan tillar bo`yicha taqsimlanishi



Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va ulardagi o'quvchilar soni



Ta'lim tizimining ahvoli haqida muhim ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlardan biri bu ta'lim muassasalarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar sonidir. U o'quvchilar umumiy sonini o'qituvchilar umumiy soniga bo'lish orqali aniqlanadi. 2017 yilda Farg'ona viloyatining umumta'lim maktablarida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni 13 ga teng bo'ldi. (6-rasm).

Hududlar bo'yicha har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, 2017 yil



3. O`RTA MAXSUS KASB - HUNAR TA`LIMI.

Farg`ona viloyatida 2017/2018 o`quv yili boshiga akademik litseylar soni 9 tani, kasb-hunar kollejlari soni 148 tani tashkil etdi


2-jadval

O`rta maxsus kasb-hunar ta`limining asosiy ko`rsatkichlari

	Akademik litseylar	Ularda o`quvchilar (ming kishi)	O`qituvchilar	Kasb hunar kollejlari	Ularda o`quvchilar (ming kishi)	O`qituvchilar (ming kishi)
2016/2017-o`quv yili boshiga	9	6,6	0,5	148	116,1	9,6

10-rasm


Akademik litseylar va kasb hunar kollejlari soni (2014-2017 yillar)



2017/2018 o`quv yili boshida Farg`ona viloyati o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi tizimining akademik litseylarida o`quvchilar soni 6650 nafar (shundan, 2945 nafari qiz), kasb-hunar kollejlari esa 116178 nafar (shundan, 55768 nafari qiz) ni tashkil etdi.


Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari soni, ming kishi
(2017/2018 o'quv yili boshiga)

11-rasm




Akademik lisey o'quvchilar soni


12-rasm




Kolleg o`quvchilar soni



Akademik liseylarga qabul qilinganlar o`quvchilar va bitiruvchilar soni



Kollejlarga qabul qilinganlar o`quvchilar va bitiruvchilar soni




4. OLIY TA`LIM

Farg'ona viloyatida oliy ta`lim muassasalari soni 2017/2018 o`quv yili boshida 3 tani tashkil etib, ularda o`qiyotgan talabalar soni 21466 nafarni tashkil qildi. 2016/2017-o`quv yili boshiga oliy ta`lim muassasalarida har bir professor o`qituvchiga 12 nafar talaba to`g`ri kelgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2017/2018-o`quv yili boshiga kelib 13 nafarni tashkil qildi. (3-jadval).


3-jadval

Farg'ona viloyatida oliy ta`limning asosiy ko`rsatkichlari


	Oliy ta`lim muassasalari soni	Talabalar soni (ming kishi)	Professor o`qituvchilar soni (ming kishi)	Har bir professor o`qituvchiga to`g`ri keladigan o`quvchilar soni
2015/2016-o`quv yili boshiga	3	18.2	1.6	11
2016/2017-o`quv yili boshiga	3	18.3	1.6	12
2017/2018-o`quv yili boshiga	3	21,5	1.6	13



Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari



Oliy ta'lim muassasalari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi



19-rasm

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'qish tillari bo'yicha taqsimlanishi

